# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

№12

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2025
dekabr



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU




ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

*Elektron nashr, 557 sahifa.*
*2025-yil, dekabr*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Shakarov Zafar Gʻafforovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻz FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Boʻtaboyev Mahammadjon Toʻychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulugʻbek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon oʻgʻli,** Texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Joʻraeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTAMCE, ODA) ORQALI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug‘ova Maftunabonu To‘lqinovna

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES ........ 28
Turayeva Gulizahro

BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI ........ 32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor

RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA ........ 39
Xonto‘rayev Obbosxon Kamolxon o‘g‘li

ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O‘LCHOVLI MODELI ........ 43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev

ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI ........ 49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ ........ 54
Даниярова Улбосын Куатбаевна

YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARI KO‘RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH ........ 58
Ergasheva Rashida Abdug‘aniyevna

HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG‘LIQLIGINI TADQIQI ........ 62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich

НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА ........ 69
Голышева Елена Вячеславовна

STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI ........ 76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna

МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ ........ 81
Уринов Адхамжон Акбарович

MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO‘YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI ........ 88
A.Xakimov, X.Xakimov

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO‘LLARI ........ 95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich

SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI ........ 102
Xusanova Maloxat Mengnorovna

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI ........ 107
Saidova Kamola Xoshimovna

OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI ........ 111
**Tleuov Niyetulla Raxmanovich**

YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH ........ 114
**Mamajanova Odina Alisher qizi**

KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI ........ 119
**Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi**

TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH ........ 124
**Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna**

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION ........ 128
**Sadikov Shoxrux Shuhratovich**

BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 133
**Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li**

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI ........ 139
**Xaitov Shaxzod Sharipboyevich**

BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI ........ 145
**Aripov Oybek Abdullayevich**

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI ........ 150
**Karimov Nodirbek**

УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ ........ 155
**Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли**

SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 163
**Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li**

O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI ........ 168
**Nazarova A.N.**

АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ ........ 172
**Шухратов Мамуржон Шухрат угли**

BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI ........ 178
**Avazov Ergash Xidirberdiyevich**

O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI ........ 182
**Ismailov Dilshod Anvarjonovich**

QISHLOQ XO'JALIGI KLASTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI ........ 190
**Dildora Yuldasheva**

TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI ........ 194
**Xalimov Shaxboz Xalimovich**

MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ........ 200
**Abdullayev Zafarbek Safibullayevich**

BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI ........ 206
**Azizova Zilola Lochinovna**

KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI ........ 212
**Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich**

ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ ........ 219
**Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович**

HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI ........ 227
**Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich**

O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 233
**Ergashev Jamshid Jamoliddinovich**

KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI ........ 237
**Ergashov Botirjon Ergashovich**

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI ........ 245
**Ahmadjanov Ilyosbek**

ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS ........ 250
**O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva**

ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH ........ 256
**Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li**

NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI ........ 260
**Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li**

RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL ........ 264
**Mamadaliev Akmaljon**

ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ ........ 269
**Зайналов Джахонгир Расулович**

FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI ........ 274
**Murodxujayeva Feruza Majidovna**

TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI ........ 280
**Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna**

LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS ........ 285
**Razakova Barno Sayfievna**

U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS ........ 289
**Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI ........ 300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li

IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI ........ 304
Karimova Iroda Abdusattarovna

"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ........ 311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva

ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET ........ 320
Inomiddin Imomov

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ ........ 324
Алиева Эльнара Аметовна

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна

ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT ........ 336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich

AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEXANIZMINING BUGUNGI HOLATI ........ 342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li

SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH ........ 350
Joniqulov Egamberdi Shavkat o'g'li

GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI ........ 357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna

СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ ........ 364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич

YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI ........ 373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ ........ 377
Хусанов Дурбек Нишанович

TEMIR YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 384
Xidirov Erkin Irgashovich

QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI ........ 391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich

GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI ........ 396
Ismatillaeva Sitora Sayfidin qizi

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI ........ 403
Akmal Shodiyev

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBI ........ 408
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

O‘TKIR BRONXIOLIT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA’SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI ........ 412
Azimova Kamola Talatovna

THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM ........ 416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna

THE ESSEINTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ........ 420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich

BLENDED LEARNING PLATFORMASI KANSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI ........ 425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich

ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA’SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH ........ 430
Kuanishbay Berdimuratov

MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI ........ 434
Sobirov Azizbek Avazbekovich

УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ ........ 443
Бабахонов Бабуржон Шухрат угли

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO‘LLASH MASALALARI ........ 449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich

QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA BOSHQARUVINING RAQAMLI MODELI VA UNING SAMARADORLIGI ........ 453
Olimova Bahora Shuxratovna

СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ ........ 463
Муминходжаева Дилноза Рамизовна

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ ........ 468
Дурманов Акмал Шаймарданович

УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА ........ 477
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли

O‘ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI ........ 483
Yuldashev Erkin Xusanovich

MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVASION JARAYONLARGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR ........ 489
Xamrayev Quvvat Iskandarovich

AGROKLASTERLARDA ICHKI SOTISH JARAYONIDA TRANSFERT BAHOLARNI BELGILASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 495
Eshmuradov Ulug‘bek Tashmuratovich

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM AND ITS ADAPTATION TO THE CONDITIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ........ 501
Ilkhomova Gulnoza Zayniddin kizi

MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH ........ 507
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o‘g‘li

TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI ........ 512
Umarova Munira Muxitdinovna

JINDA ARRALI SILINDR TISHLARIDAN TOLANI AJRATISH JARAYONINI HAVO OQIMI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRUVCHI ENERGIYA TEJAMKOR QURILMANI MODELLASHTIRISH........ 516
**Mirzakarimov Mirsharofiddin Mirzaabdurahimovich**

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNI XORIJGA EKSPORT QILISH MEXANIZMLARI........ 524
**Matkarimov Anvar Tajimatovich**

MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH........ 528
**Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o‘g‘li**

SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI........ 533
**Ismailov Bobir Salomovich**

QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARIDA KAPITAL QO‘YILMALAR XUSUSIYATLARI VA ULAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH........ 540
**Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich**

QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR VA ULAR BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI........ 545
**Fayzullayev Murodjon Nematulayevich**

O‘ZBEKISTONDA KLASTER IQTISODIYOTI: INVESTITSIYALAR, EKSPORT VA SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI (2022-2024-YILLAR KESIMIDA)........ 550
**O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich, Jabbarov Majidbek Erzodovich, Ruzmetova Gulira’no Atabekovna**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# O'ZBEKISTONDA KLASTER IQTISODIYOTI: INVESTITSIYALAR, EKSPORT VA SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI (2022-2024-YILLAR KESIMIDA)

**O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich**
Ma'mun universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: uurinboyev@mamunedu.uz

**Jabbarov Majidbek Erzodovich**
Ma'mun universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: jabbarov_majidbek@mamunedu.uz

**Ruzmetova Gulira'no Atabekovna**
Ma'mun universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, Phd
E-mail: gulirano_ruzmetova@mamunedu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida klasterlashuv jarayonining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Klaster tizimi nisbatan yangi bo'lsa-da, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Tadqiqotning maqsadi – klasterlarning ishlab chiqarish, investitsiya va eksport ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganishdir. 2022-2024-yillar statistikasi klasterlarning ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib borayotganini, investitsiyalar infratuzilmani modernizatsiya qilayotganini va eksport ko'rsatkichlari xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirayotganini ko'rsatdi. Natijalar klaster tizimining O'zbekiston iqtisodiyotida zamonaviy ishlab chiqarish modeli sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Klasterlashuv, ishlab chiqarish hajmi, investitsiya oqimlari, eksport salohiyati, innovatsion texnologiyalar, raqobatbardoshlik, modernizatsiya, iqtisodiy samaradorlik, milliy iqtisodiyot.

Abstract. This article analyzes the formation and development of the clustering process in the economy of Uzbekistan. Although the cluster system is relatively new, it plays an important role in attracting investments, expanding production volumes, and increasing export potential. The purpose of the study is to study the dynamics of production, investment, and export indicators of clusters. Statistics for 2022-2024 showed that cluster production volumes are growing steadily, investments are modernizing infrastructure, and export indicators are increasing competitiveness in international markets. The results confirm the formation of the cluster system as a modern production model in the economy of Uzbekistan.

Keywords: Clustering, production volume, investment flows, export potential, innovative technologies, competitiveness, modernization, economic efficiency, national economy.

Аннотация. В данной статье анализируется формирование и развитие процесса кластеризации в экономике Узбекистана. Несмотря на то, что кластерная система является относительно новой, она играет важную роль в привлечении инвестиций, расширении объемов производства и увеличении экспортного потенциала. Целью исследования является изучение динамики производственных, инвестиционных и экспортных показателей кластеров. Статистика за 2022-2024 годы показала, что объем производства кластеров стабильно растет, инвестиции модернизируют инфраструктуру, а показатели экспорта повышают конкурентоспособность на международных рынках. Результаты подтверждают формирование кластерной системы как современной модели производства в экономике Узбекистана.

Ключевые слова: Кластеризация, объем производства, инвестиционные потоки, экспортный потенциал, инновационные технологии, конкурентоспособность, модернизация, экономическая эффективность, национальная экономика.

## KIRISH

Hozirgi kunda kundalik hayotimizda “klaster” atamasi tez-tez qoʻllanilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ushbu tushuncha iqtisodiyotning eng rivojlangan, yuqori qoʻshilgan qiymat yaratadigan va innovatsion oʻsish bosqichiga yetgan sohalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Klaster tizimida ilm-fan yutuqlarini tezkor joriy etish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalar hamda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali iqtisodiy oʻsishga sezilarli hissa qoʻshuvchi muhim yoʻnalish sifatida qaraladi.

Klasterlashuv jarayoni mamlakatimiz iqtisodiyotiga nisbatan yaqinda kirib kelgan boʻlishiga qaramay, u asta-sekin oʻz samarasini bera boshlagani va iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllanib borayotganini kuzatish mumkin. “Klaster” atamasi keng mazmunga ega boʻlib, mazkur yondashuv har bir sohada oʻziga xos xususiyatlarga ega holda qoʻllaniladi. Ushbu jarayonda tayyor mahsulot ishlab chiqarishning dastlabki bosqichidan boshlab, yakuniy mahsulotni tayyorlashgacha boʻlgan barcha ishlab chiqarish zanjirlari oʻzaro uzviy bogʻlangan holda faoliyat yuritadi.

Klasterlashuv jarayonida nafaqat muayyan mahsulot ishlab chiqarish ta’minlanadi, balki aholi sifatli va ishonchli iste’mol tovarlari bilan ta’minlanadi, bandlik darajasi oshiriladi hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yaratiladi. Shu bois klaster tizimi iqtisodiyotning barqaror va samarali oʻsishini ta’minlovchi ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida namoyon boʻladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Tarixiy manbalarga murojaat qilinganda, “klaster” atamasi dastlab ilm-fan sohasida qoʻllanilganini koʻrish mumkin. 1990-yillarga kelib professor Maykl Porter ushbu tushunchani iqtisodiy jarayonlarga tatbiq etib, klasterni “raqobatbardoshlikni oshiruvchi hududiy va tarmoqli korxonalar guruhi” sifatida talqin qilgan holda keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib bordi. Maykl Porterning ta’rifiga koʻra, klaster – bu geografik jihatdan yaqin joylashgan, oʻzaro bogʻliq kompaniyalar, yetkazib beruvchilar, xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar, ilmiy muassasalar va institutlar majmuasi boʻlib, ular muayyan soha yoki tarmoq doirasida shakllanadi. Mazkur tizim zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish asosida yuqori darajada ixtisoslashgan ishlab chiqarish infratuzilmasini vujudga keltiradi.

Klaster tizimi mahalliy xomashyo va mavjud imkoniyatlarni chuqur qayta ishlashga tayanadi hamda aholining malakali mehnat yoʻnalishlarida bandligini ta’minlovchi kompleks iqtisodiy tuzilma sifatida namoyon boʻladi. Agrar sohada klasterlashuv jarayonlari 1990-yillardan boshlab faol qoʻllanila boshlagan. Dastlab bu tizim rivojlangan mamlakatlarda, xususan AQSH, Germaniya, Fransiya va Yaponiya kabi davlatlarda keng joriy etildi.

Amerika Qoʻshma Shtatlarida 1990-yilda qishloq xoʻjaligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga bagʻishlab e’lon qilingan hisobotlarga koʻra, Kaliforniya shtati meva-sabzavot yetishtirish boʻyicha mamlakatda eng yirik bozor ulushiga ega boʻlib, ushbu yoʻnalishda klasterlashuvning dastlabki shakllari vujudga kelgan. Ayova shtatida esa iqlim sharoitining nisbatan quruq boʻlishiga qaramasdan don va dukkakli ekinlar yetishtirishda yuqori rentabellikka erishilgan hamda mazkur yoʻnalishda klasterlashuv jarayonlari boshlangan. Texas shtatida asosan chorvachilik va paxta yetishtirishga ixtisoslashgan yirik fermer xoʻjaliklari shakllanib, bu jarayonda ham klaster tizimidan foydalanishning ilk koʻrinishlari yuzaga kelgan. Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarda klasterlashuv boʻyicha toʻplangan dastlabki tajribalar ushbu tizimning jahon miqyosida keng tarqalishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir koʻrsatgan.

Tadqiqotlar natijalariga koʻra, hozirgi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda klasterlar ulushi qariyb 50 foizni tashkil etadi. Jumladan, Amerika Qoʻshma Shtatlarida yalpi ichki mahsulotning qariyb 60 foizi klasterlar hissasiga toʻgʻri keladi. Italiyada sanoat sohasida band boʻlgan ishchi kuchining 43 foizi klasterlarda faoliyat yuritadi, mamlakat eksport hajmining 30 foizdan ortigʻi ham aynan klasterlar tomonidan ta’minlanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ham klaster tizimi 2018-yildan boshlab jadal rivojlana boshladi. Dastlabki bosqichda yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar negizida 6 ta kimyo-texnologiya klasteri tashkil etildi. Shuningdek, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri boʻlgan mashinasozlik sohasida – yengil avtomobillar, yuk mashinalari, avtobuslar hamda qishloq xoʻjaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi korxonalar asosida mashinasozlik klasterlari shakllantirildi. Hududlar kesimida qaralganda, birgina Toshkent viloyatida 41 ta sanoat klasteri faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, mashinasozlikning istiqbolli yoʻnalishi hisoblangan elektromobil ishlab chiqarish sohasida butlovchi qismlar va materiallarni mahalliylashtirish maqsadida elektromobil klasterlari tashkil etildi. Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasida esa gaz-kimyo yoʻnalishida yirik klaster tarmoqlari shakllantirilib, ular milliy iqtisodiyotning sanoat salohiyatini oshirishda muhim rol oʻynamoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqola O‘zbekiston iqtisodiyotida klasterlar faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqotda asosiy metodlar sifatida kuzatuv, jamlash, taqqoslash va solishtirma tahlil usullaridan keng foydalanildi. Ushbu usullar yordamida ishlab chiqarish, investitsiya va eksport ko‘rsatkichlarining yillik o‘sish sur’atlari, eksport hajmining ishlab chiqarish hajmiga nisbati, shuningdek klasterlarning milliy iqtisodiyotdagi ulushi va o‘rni baholandi. Tahlil jarayonida rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar, statistik hisobotlar hamda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar asosiy axborot manbalari sifatida foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston iqtisodiyotida klasterlar zamonaviy ishlab chiqarish modeli sifatida shakllanib, ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport jarayonlarini yagona zanjirda birlashtiruvchi kompleks tizimni vujudga keltirmoqda. Ushbu tizimning mohiyati shundan iboratki, xomashyo yetishtirishdan boshlab uni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish hamda ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha bosqichlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Natijada klasterlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki qo‘shilgan qiymatni ko‘paytiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi, xizmatlar sektorining rivojlanishiga turtki beradi hamda eksport salohiyatini kengaytiradi.

So‘nggi yillarda shakllangan statistik ma’lumotlar klasterlar faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Xususan, ishlab chiqarish hajmlarining izchil o‘sib borayotgani, investitsiya oqimlarining klaster infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo‘naltirilayotgani, shuningdek eksport hajmining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilayotgani kuzatilmoqda. Mazkur jarayon O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, diversifikatsiyalash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda klasterlarning strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, klasterlar hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirib, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu sababli, mazkur tadqiqotda klasterlar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari – ishlab chiqarish hajmi, investitsiya oqimlari va eksport natijalari – alohida jadvallar asosida tahlil qilinadi. Har bir jadvalda mazkur ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlari, dinamikasi hamda ularning iqtisodiy mazmuni batafsil yoritiladi. Ushbu yondashuv klasterlarning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini yanada aniqroq aniqlash, ularning kuchli va zaif tomonlarini baholash, hududiy rivojlanishdagi rolini ochib berish hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini belgilash imkonini beradi. Quyida har bir jadval asosida batafsil tahlil va izohlar keltiriladi.




1-rasm. Klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarning sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

Mamlakatimiz iqtisodiyotida 2022-yilda klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar soni 509 taga yetib, ular tomonidan jami 28 679,2 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Shu bilan birga, klaster korxonalari o‘z mablag‘lari hisobidan 47,8 mlrd so‘mlik qurilish ishlarini amalga oshirdi.

2023-yilda esa klaster korxonalari tomonidan 31 794,5 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, 44,9 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi. Natijada, 2022-yilga nisbatan 2023-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 10,9 foizga oshdi.

2024-yilda klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar soni 433 taga qisqarganiga qaramay, yanvar-dekabr oylarida ular tomonidan 36 372,6 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan ishlab chiqarish hajmining yana 14,4 foizga o'sganini anglatadi.

Ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'atining tezlashuvi klaster sohasiga yo'naltirilgan investitsiya oqimlari hisobiga ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiya qilinayotgani, mahsulot sifati yaxshilanayotgani hamda sohaning barqaror o'sish tendensiyasini saqlab qolayotganini yaqqol ko'rsatadi.




2-rasm. Klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarning asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi

Iqtisodiyotimizda klaster tizimi nisbatan yangi yo'nalish bo'lishiga qaramay, investitsiyalarni jalb etishda muhim tarmoqlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu soha qisqa muddat ichida milliy iqtisodiyotda o'z o'rnini egallab, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirishda sezilarli natijalar ko'rsatmoqda.

2022-yilda klasterlarga 2 066,5 mlrd so'm miqdorida investitsiya jalb etilgan bo'lsa, 2023-yilda mazkur ko'rsatkich 73,5 foizga oshib, 3 584,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu kapital qo'yilmalar o'z samarasini tez fursatda namoyon qilib, 2023-yilda klaster korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 10,9 foizga o'sishini ta'minladi.

2024-yil davomida klaster sohasiga 3 677,8 mlrd so'm investitsiya yo'naltirildi, bu esa 2023-yilga nisbatan 2,6 foizlik o'sishni anglatadi. Mazkur ko'rsatkich investitsiya oqimlarining nisbatan barqarorlashganini hamda kapital qo'yilmalar hajmining yuqori darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning iqtisodiy samarasini ishlab chiqarish hajmining tezlashuvi orqali kuzatish mumkin bo'lib, bu klasterlarning milliy iqtisodiyotdagi umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, mazkur jarayon klaster tizimining milliy iqtisodiyotda strategik ahamiyati tobora ortib borayotganini, investitsiya oqimlari orqali ishlab chiqarish infratuzilmasi va eksport salohiyati izchil ravishda mustahkamlanayotganini yaqqol namoyon etadi.




3-rasm. Klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarning eksport hajmi

Iqtisodiyot nazariyasidan ma'lumki, har bir mamlakat uchun ishlab chiqarilayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni xorijiy bozorlarga eksport qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport hajmining oshishi mamlakat iqtisodiy holatining yaxshilanishiga, aholi turmush darajasining yuksalishiga hamda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, eksport darajasi makroiqtisodiy barqarorlikni belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladi.

Klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan eksport qilingan mahsulotlar hajmi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. 2022-2024-yillar davomida klasterlar eksporti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, 2022-yil yakunida eksport hajmi 5 759,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 6,9 foizga oshib, 6 159,0 mlrd so'mga yetdi. Mazkur natija klaster sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar va amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlarning samarasi sifatida baholanadi.

2024-yilda esa klasterlar eksport hajmi 21,7 foizga o'sib, jami 7 250,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich klasterlarning qisqa muddat ichida milliy iqtisodiyotning muhim va ajralmas tarmog'iga aylanganini tasdiqlaydi. Shuningdek, eksport hajmining sezilarli darajada oshishi klasterlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirayotgani hamda mamlakat tashqi savdo balansida ularning o'rni tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida klasterlashuv jarayoni qisqa muddat ichida sezilarli natijalar bermoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, klasterlar ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport jarayonlarini yagona zanjirda birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida shakllanib, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga muhim hissa qo'shmoqda. 2022-2024-yillar kesimida klasterlar tarkibidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28 679,2 mlrd so'mdan 36 372,6 mlrd so'mga yetib, o'sish sur'atlarining tezlashgani kuzatildi. Ushbu jarayon investitsiya oqimlarining samarali yo'naltirilishi hamda ishlab chiqarish infratuzilmasining modernizatsiyasi bilan izohlanadi.

Investitsiyalar hajmi 2022-yilda 2 066,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich keskin oshib, 3 584,3 mlrd so'mga yetdi va 2024-yilda 3 677,8 mlrd so'm darajasida barqarorlashdi. Bu holat klaster sohasiga jalb etilgan kapital mablag'larining o'z hosilasini ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlarida namoyon etayotganini tasdiqlaydi. Xususan, eksport hajmi 2022-yilda 5 759,3 mlrd so'mdan 2024-yilda 7 250,9 mlrd so'mga yetib, ikki yil davomida 25,9 foizga oshdi. Mazkur ko'rsatkich klasterlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi ortib borayotganini hamda milliy iqtisodiyotning tashqi savdo balansida ularning o'rni tobora mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, klasterlar nafaqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmatlar segmentini rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, kreditorlik qarzdorligining yuqoriligi, xizmatlar bo'g'inining yetarlicha rivojlanmaganligi hamda investitsiya hosilasining lag-effekti kabi muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish klasterlarning kelgusidagi samaradorligini oshirish uchun zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, klasterlashuv O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Klasterlar orqali ishlab chiqarish va eksport hajmlarining o'sishi, investitsiya oqimlarining samarali taqsimlanishi hamda ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, klaster tizimini yanada rivojlantirish, xizmatlar segmentini kuchaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifalardan biri bo'lishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Porter M.E. (1990). *The competitive advantage of nations*. New York, NY: Free Press. https://economie.ens.psl.eu/IMG/pdf/porter_1990_-_the_competitive_advantage_of_nations.pdf
2. Delgado M., Porter M.E., & Stern S. (2017). *Cluster mapping as a tool for development* (Working Paper). Institute for Strategy and Competitiveness, Harvard Business School.
3. United States Department of Agriculture. Economic Research Service. (2002). *Agricultural income and finance outlook*. Washington, DC. https://ers.usda.gov/sites/default/files/_laserfiche/publications/42396/31544_aib770_002.pdf
4. Qo'ziyev K. (2023, March 30). *Klaster tizimi va uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni*. Institute for Macroeconomic and Regional Studies https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/cluster
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. (2025). *Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va investitsiya ko'rsatkichlari bo'yicha press-relizlar (2022–2024)*. Toshkent. https://stat.uz/images/miz-press-reliz-uz.pdf
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. (2025). *Eksport ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlar (2022-2024)*. Toshkent. https://stat.uz/img/zb.pdf
7. Ruzmetova, G. N. (2025). Inson kapitalini rivojlantirishning mintaqaviy rivojlanish asoslarining asosiy omillari tahlili. *Nauka i innovatsiya*, 3(13), 100-102.

8. Akhmedova, D. K. (2023). Digitalization of retail lending practice in commercial banks of the Republic of Uzbekistan. *Frontline Marketing. Management and Economics Journal*, 3(5), 25-32.
9. Ниязметов Д. (2024). Проблемй банков с операциями на рйнке ценнйкҳ бумаг и пути икҳ преодоления. Экономическое развитие и анализ, 2(10), 159-165.
10. Urinboev, U. O. (2024). *Cluster development in Uzbekistan's economy: Production volume, investment flows, and export dynamics (2022-2024)*. American Journal of Business, Marketing and Economic Development. https://americanjournal.org/index.php/ajbmeb/article/view/3221

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 12**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**
**tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100